roq berish; Qiyosiy leksikografiya yo‘nalishida maxsus tadqiqotlarni davom ettirish. Mazkur tadqiqot natijalari leksikografiya, semantika va tarjima nazariyasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**


(1). Oxford Advanced Learner’s Dictionary. Oxford, Oxford University Press, 2015.
(2). Longman Dictionary of Contemporary English. Harlow, Pearson Education, 2014.
(3). O‘zbek tilining izohli lug‘ati. Toshkent, O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2006–2008.
(4). Toward a Cognitive Semantics. Cambridge, MA: MIT Press, 2000.
(5). Language. New York, Holt, 1933.
(6). Linguistic Semantics: An Introduction. Cambridge, Cambridge University Press, 1995.
(7). Semantics: Primes and Universals. Oxford, Oxford University Press, 1996.
(8). Lexicography: An Introduction. London, Routledge, 2002.
(9). Teaching and Researching Lexicography. London, Pearson Education, 2001.
(10). Syntactic Structures. The Hague: Mouton, 1957.
(11). Course in General Linguistics. New York, McGraw-Hill (English edition), 1966. (Original: 1916).
(12). Русский язык (Грамматическое учение о слове). Москва, “Высшая школа”, 1947.
(13). O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. Toshkent, “Fan”, 1978.
(14). The Cambridge Encyclopedia of Language. Cambridge, Cambridge University Press, 1987.



**Ishankulova Nilufar Tashkentovna (Qarshi davlat Texnika universiteti “Xorijiy tillar” kafedrasi dotsenti; blume20@mail.ru)**


## NEMIS TILIDA PRÄTERIT VA ITERATIVLIK: NARRATIV DISKURSDAGI FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI


***Annotatsiya.*** *Mazkur maqolada nemis tilida Präterit shaklining iterativ semantikaga ega fe’llar bilan qo‘llanishi hamda uning narrativ diskursdagi funksional xususiyatlari tahlil qilinadi. Iterativlik voqeaning ichki segmentatsiyasi va vaqt bo‘ylab diskret aktlar ketma-ketligi sifatida talqin qilinadi. Tadqiqotda iterativlik va habitualiklik o‘rtasidagi konseptual farq aniqlashtirilib, nemis hamda o‘zbek tillarida takroriylikni ifodalash vositalari qiyosiy jihatdan ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari Präterit shaklining nafaqat temporal lokalizatsiya vositasi, balki narrativ diskursda segmentlangan o‘tmish modelini shakllantiruvchi aspektual vosita sifatida ham namoyon bo‘lishini ko‘rsatadi.*



***Kalit so‘zlar:*** *präterit, iterativlik, habitualiklik, aspektual semantika, narrativ diskurs, voqea ko‘pligi, segmentatsiya.*



**Ишанкулова Нилуфар Ташкентовна (доцент кафедры иностранных языков Каршинского государственного технического университета; blume20@mail.ru)**


## ПРЕТЕРИТ И ИТЕРАТИВНОСТЬ В НЕМЕЦКОМ ЯЗЫКЕ: ФУНКЦИОНАЛЬНЫЕ ОСОБЕННОСТИ В НАРРАТИВНОМ ДИСКУРСЕ


***Аннотация.*** *В статье анализируется употребление формы Präteritum в немецком языке в сочетании с глаголами, обладающими итеративной семантикой, а также её функциональные особенности в нарративном дискурсе. Итеративность интерпретируется как внутренняя сегментация события и последовательность дискретных актов во времени. Уточняется концептуальное различие между итеративностью и хабитуальностью, проводится сопоставительный анализ средств выражения повторности в немецком и узбекском языках. Результаты исследования показывают, что форма Präteritum выполняет не только темпоральную функцию, но и выступает как аспектуальное средство формирования модели сегментированного прошедшего.*



***Ключевые слова:*** *претерит, итеративность, хабитуальность, аспектуальная семантика, нарративный дискурс, множественность событий, сегментация.*



**Ishankulova Nilufar Tashkentovna (Associate professor, department of Foreign languages, Karshi state technical university; blume20@mail.ru)**


## PRETERITE AND ITERATIVITY IN THE GERMAN LANGUAGE: FUNCTIONAL FEATURES IN NARRATIVE DISCOURSE


***Annotation.*** *The article analyzes the use of the Präteritum form in German in combination with verbs possessing iterative semantics and examines its functional characteristics in narrative discourse. Iterativity is interpreted as the internal segmentation of an event and as a sequence of discrete acts distributed over time. The conceptual distinction between iterativity and habituality is clarified, and a comparative analysis of means of expressing repetition in German and Uzbek is provided. The findings demonstrate that the*

*Präteritum performs not only a temporal function but also serves as an aspectual device forming a model of segmented past in narrative discourse.*

***Keywords:*** *Präteritum, iterativity, habituality, aspectual semantics, narrative discourse, event plurality, segmentation.*

**Kirish.** Nemis tilida Präterit shakli an'anaviy ravishda o'tgan zamonni ifodalovchi grammatik kategoriya sifatida talqin qilinadi. Klassik grammatika tadqiqotlarida bu shakl nutq momentidan oldin sodir bo'lgan voqealarni ifodalovchi asosiy temporal vosita sifatida tavsiflanadi.Biroq zamonaviy lingvistik tadqiqotlar zamon shakllarining funksional imkoniyatlarini yanada kengroq doirada ko'rib chiqish zarurligini ko'rsatmoqda. Funksional-semantik yondashuvga ko'ra, zamon kategoriyasi faqat vaqtni ko'rsatish bilan cheklanmaydi, balki harakatning ichki tuzilmasi, voqealarning diskursda joylashuvi va narrativ matnda vaqt oqimining tashkil etilishi bilan ham bog'liq.

Nemis tilida iterativlik mustaqil grammatik kategoriya sifatida shakllanmagan bo'lsa-da, ko'plab fe'llarning leksik-aktsional semantikasi harakatning takroriy yoki segmentlangan xarakterini ifodalash imkonini beradi. Bunday fe'llar bilan qo'llangan Präterit shakli narrativ diskursda tasviriy fonni yaratish, voqealarning dinamik muhitini tasvirlash hamda matnning ekspressivligini kuchaytirishda muhim rol o'ynaydi.

Narrativ matnlarda zamon shakllari voqealarning diskursdagi tartibini tashkil etuvchi muhim vositalardan biridir.Nemis tilida ayniqsa yozma badiiy matnlarda Präterit asosiy narrativ zamon sifatida keng qo'llanadi. Shu sababli Präteritning funksional imkoniyatlarini o'rganish nafaqat grammatik, balki matn lingvistikasi nuqtai nazaridan ham muhim hisoblanadi.

Mazkur maqolada Präterit shaklining iterativ semantikaga ega fe'llar bilan qo'llanishi tahlil qilinadi hamda uning narrativ diskursdagi funksional xususiyatlari aniqlanadi. Shuningdek, nemis tilidagi iterativ konstruktsiyalar o'zbek tilidagi davomiy-iterativ analitik konstruksiyalar bilan qiyosiy jihatdan ko'rib chiqiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Nemis tilida Präterit zamoni va iterativlik hodisasi zamon va aspekt kategoriyalarini o'rganish doirasida muhim o'rin tutadi. Helbig va Buscha Präterit zamonini yozma nutqda, ayniqsa narrativ matnlarda voqealarni ketma-ket bayon qilish uchun ishlatiladigan asosiy grammatik vosita sifatida ta'riflaydi.

Weinrich esa Präteritni "hikoya qilinayotgan dunyo"ga xos zamon shakli deb hisoblaydi va uning narrativ diskursdagi muhim funksiyasini ta'kidlaydi. Iterativlik masalasi Comrie va Dahl tomonidan harakatning takroriyligini bildiruvchi semantik kategoriya sifatida izohlangan.

Shunday qilib, Präterit narrativ matnlarda voqealarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi, iterativlik esa harakatning takroriyligini ko'rsatib, matnning semantik mazmunini boyitadi.

**Tadqiqot metodologiyasi**. Iterativlikning nazariy asoslari: voqea ko'pligi va segmentatsiya.

Iterativlik zamonaviy aspektologiyada muhim o'rin tutuvchi semantik hodisalardan birihisoblanadi. Slavyan tillari materialiga asoslangan tadqiqotlarda Wągiel [10], Jászay [6] va Biskup [1] iterativlikni semelfaktivlik hamda imperfektivlik bilan qiyoslab, uning kvantitativ-aspektual xarakterga ega ekanini ko'rsatadi. Zamonaviy lingvistik nazariyalarda iterativlik ko'pinchavoqea ko'pligi (event plurality) tushunchasi bilan bog'lanadi. Ushbu yondashuvga ko'ra iterativ vaziyat yagona davomli harakat emas, balki diskret aktlardan iborat ko'plik strukturasi sifatida talqin qilinadi.

Iterativlikning asosiy semantik belgilariga quyidagilar kiradi:

•harakatning ichki segmentatsiyasi;

•diskret mikro-aktlarning ketma-ketligi;

•vaqt davomida yoyilganlik;

•harakatning intensiv yoki ekspressiv xarakteri.

Iterativ fe'llar ko'pincha takroriy yoki ritmik harakatlarni bildiradi. Bunday fe'llar semantik jihatdan ichki tuzilishga ega bo'lib, ularning ma'nosida bir xil harakatning ketma-ket takrorlanishi nazarda tutiladi. Nemis tilida *klopfen, pochen, zittern, flackern, rauschen, rascheln*kabi fe'llar iterativ semantikaga ega bo'lgan fe'llar sifatida ko'riladi.

Nemis tilshunosligida iterativlik alohida grammatik kategoriya sifatida emas, balki ko'proq leksik-semantik hodisa sifatida talqin qilinadi. Duden grammatikasida takroriylik ko'pincha fe'lning leksik semantikasi yoki kontekstual vositalar orqali ifodalanishi qayd etiladi [2]. U.Engel ham nemis fe'llarining aksional tasnifini tahlil qilar ekan, ayrim fe'llarning ichki tuzilmasi takroriy mikro-harakatlardan iborat bo'lishini ta'kidlaydi [3].

Iterativlik, ko'pincha, habitualiklik bilan chalkashtiriladi. Biroq aspektologik nuqtayi nazardan ushbu ikki hodisa o'rtasida muhim konseptual farq mavjud. Iterativlik muayyan vaziyat doirasida yuzaga kela-

digan takroriy harakatni anglatadi. Habitualiklik esa harakatning muntazam ravishda takrorlanishini bildiradi va u ko‘proq umumiy, generik xususiyatga ega bo‘ladi.

Masalan: *Er klopfte mehrmals an die Tür.* Bu misolda harakat muayyan vaziyat doirasida takrorlangan.

*Er klopfte jeden Abend an die Tür.* Bu yerda esa harakat muntazam ravishda takrorlanadigan odatni bildiradi.

Shunday qilib, iterativlik situativ takroriylikni, habitualiklik esa generik muntazamlikni ifodalaydi. Präterit shakli esa bu ma’nolardan birortasini mustaqil ravishda belgilamaydi, balki harakatni o‘tgan zamon kontekstiga joylashtiradi.

**Tahlil va natijalar.** Badiiy matnlarda iterativ Präteritning funksional xususiyatlari. Nemis badiiy adabiyotida Präterit shakli narrativ bayonning asosiy grammatik vositasi sifatida keng qo‘llanadi. Ayniqsa tasviriy parchalarda iterativ semantikaga ega fe’llar bilan qo‘llangan Präterit voqea muhitini yaratishda muhim rol o‘ynaydi. Bunday fe’llar harakatni yagona akt sifatida emas, balki vaqt davomida takrorlanib turuvchi mikro-harakatlar ketma-ketligi sifatida tasvirlash imkonini beradi. Natijada narrativ matnda tasviriy fon shakllanadi va voqealarning emosional hamda psixologik muhitini ifodalash imkoniyati kengayadi.

Nemis adabiyotida tabiat hodisalari, insonning fiziologik holatlari hamda turli dinamik jarayonlar ko‘pincha, iterativ semantikaga ega fe’llar yordamidatasvirlanadi. Bunday vaziyatlarda Präterit shakli, harakatni o‘tmish kontekstiga joylashtiradi, iterativ fe’l esa voqeaning ichki segmentatsiyasini ta’minlaydi.

Masalan, I.W.Gyotening mashhur “Die Leiden des jungen Werthers” asarida quyidagi tasvir uchraydi: *Das Wasser rauschte leise über die Steine* [5]. – *Suv toshlar ustida jimgina shitirlab oqardi.*

Mazkur misolda *rauschte* fe’li suv oqimining shovullashini bildiradi. Ushbu harakat yagona akt emas, balki suv oqimi natijasida yuzaga keladigan ko‘plab mikrotovushlarning ketma-ketligidan iborat. Shu sababli mazkur fe’l iterativ semantikaga ega hisoblanadi. Präterit shakli esa ushbu jarayonni o‘tgan zamon kontekstida tasvirlaydi.

I.W.Gyote asarlarida insonning ichki psixologik holatini tasvirlashda ham iterativ fe’llar qo‘llanadi. Masalan:

*Sein Herz pochte heftig. -Uning yuragi qattiq ura boshladi.* Bu yerda *pochte* fe’li yurak urishining takroriy mikro-harakatlarini bildiradi. Yurak urishi fiziologik jarayon sifatida takroriy aktlardan iborat bo‘lib, iterativ semantikaga ega. Präterit shakli esa ushbu jarayonni narrativ matnda tasviriy fon sifatida beradi.

Tabiat hodisalarini tasvirlashda ham iterativ fe’llar muhim rol o‘ynaydi. Masalan:

*Die Blätter rauschten im Wind* [8]. *–Barglar shamolda shitirlab turardi.* Mazkur misolda *rauschten* fe’li shamol ta’sirida yuzaga keladigan takroriy tovushlarni ifodalaydi. Bu tovushlar alohida aktlar emas, balki uzluksiz takrorlanib turuvchi mikroharakatlar sifatida talqin qilinadi.

E.M.Remarque asarlarida ham iterativ fe’llar yordamida tasviriy fon yaratiladi. Masalan:

*Die Flamme flackerte im Kamin* [9]. *–Olov kamin ichida lipillab turardi.* Bu yerda *flackerte*fe’li olovning titrab yonishini bildiradi. Olovning yonishi takroriy mikroharakatlardan iborat bo‘lgan dinamik jarayon sifatida tasvirlanadi.

Franz Kafka asarlarida esa iterativ fe’llar, ko‘pincha, insonning psixologik yoki fiziologik holatini tasvirlashda qo‘llanadi. Masalan: *Gregor zitterte am ganzen Körper* [7]. – *Gregor butun vujudi bilan titrar edi.* Bu yerda *zitterte* fe’li inson tanasining takroriy titrash harakatini bildiradi. Mazkur fe’l semantik jihatdan ichki segmentatsiyaga ega bo‘lib, harakat ko‘plab mikroaktlardan iborat ekanini ko‘rsatadi.

Yuqoridagi misollar shuni ko‘rsatadiki, iterativ fe’llar bilan qo‘llangan Präterit shakli narrativ matnda voqeani segmentlangan jarayon sifatida tasvirlash imkonini beradi. Bunday vaziyatlarda harakat yagona akt sifatida emas, balki vaqt davomida takrorlanib turuvchi mikro-harakatlar tizimi sifatida talqin qilinadi.

Natijada iterativ fe’llar narrativ diskursda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

•tasviriy fonni yaratadi;

•tabiiy yoki psixologik jarayonlarni ifodalaydi;

•voqealarning emotsional muhitini kuchaytiradi;

•harakatning dinamik xarakterini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, iterativ semantikaga ega fe’llar bilan qo‘llangan Präterit shakli narrativ diskursda voqeani tasvirlashning muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo‘ladi.

**O‘zbek tilida davomiylik va iterativlik ifodalanishi**. Turkiy tillarda, jumladan o‘zbek tilida davomiylik va takroriylik, ko‘pincha, analitik fe’l konstruktsiyalari orqali ifodalanadi. Bunday konstruksiyalar leksik fe’l va yordamchi fe’l birikmasidan tashkil topadi.

Masalan: *Yomg‘ir yog‘ib turibdi.U qo‘lini ishqalab yotibdi.* Mazkur konstruksiyalar morfologik jihatdan *ravishdosh (-ib) + yordamchi fe’l*modeliga asoslanadi. Yordamchi fe’l harakatning davomiyligini bildiradi, asosiy fe’l esa, ko‘pincha, ichki segmentatsiyani ta’minlaydi.

Masalan, *yog‘moq* fe’li yomg‘ir tomchilarining ketma-ket tushishini bildiradi, *ishqalamoq*esa takroriy mikro-harakatlarni anglatadi. Natijada uch komponentli aspektual struktura yuzaga keladi:

•grammatik davomiylik;

•leksik iterativlik;

•diskursda fon vaziyatining shakllanishi.

Agar mazkur konstruksiya o‘tgan zamonga ko‘chirilsa, quyidagi shakl hosil bo‘ladi:

*Yomg‘ir yog‘ib turgan edi.U qo‘lini ishqalab yotgan edi.*

Bu holatda davomiy jarayon o‘tgan zamon kontekstida tasvirlanadi.

Ba’zan o‘zbek tilida analitik konstruksiyalar sintetik vositalar bilan integratsiyalashadi. Masalan:

*Yomg‘ir yog‘ib yotardi.* Mazkur konstruksiyada bir nechta grammatik komponent integratsiyalashgan:

*-ib* — ravishdosh shakli;

*yot-* — davomiylikni bildiruvchi yordamchi fe’l;

*-ar* — odatiy yoki habitual komponent;

*-di* — o‘tgan zamon ko‘rsatkichi.

Natijada sintetik va analitik vositalarning integratsiyalashgan aspektual modeli yuzaga keladi.

Nemis tilida esa bunday grammatik integratsiya kuzatilmaydi. Nemis tilida iterativlik, asosan, fe’lning leksik semantikasi yoki kontekstual vositalar orqali ifodalanadi.

Masalan:

*Der Regen regnete und regnete.*

*Er rieb sich immer wieder die Hände.*

*Er klopfte mehrmals an die Tür.*

Bu yerda takroriylik grammatik emas, balki semantik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi.

Nemis va o‘zbek tillarini qiyosiy jihatdan tahlil qilish iterativlik ifodalanishida muhim tipologik farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Quidagi jadvalni taqqoslang.

| Aspektual xususiyat | Nemis tili | O‘zbek tili |
|---|---|---|
| Iterativlik maqomi | Mustaqil grammatik kategoriya emas | Analitik konstruksiyalar orqali ifodalanadi |
| Asosiy ifodalanish vositasi | Leksik-aktsional semantika | Analitik fe’l konstruksiyalari |
| Morfologik vositalar | Maxsus morfologik ko‘rsatkich yo‘q | Ravishdosh (-ib) + yordamchi fe’l |
| Temporal integratsiya | Präterit orqali o‘tgan zamonga lokalizatsiya qilinadi | Analitik modelga zamon ko’rsatkichlari qo‘shiladi |
| Narrativ funksiyasi | Tasviriy fonni yaratish | Jarayonning davomiy va takroriy xarakterini ko‘rsatish |

Qiyosiy tahlil shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida davomiylik va iterativlik, ko‘pincha, grammatiklashgan analitik konstruksiyalar orqali ifodalanadi. Nemis tilida esa iterativlik, asosan, leksik va kontekstual vositalar orqali yuzaga keladi. Bu holat ikki tilnig aspektual tizimi o‘rtasidagi muhim tipologik farqlarni ko‘rsatadi.

**Xulosa.** O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, nemis tilida Präterit shaklini faqat o‘tgan zamonni bildiruvchi grammatik kategoriya sifatida talqin qilish yetarli emas. Iterativ semantikaga ega fe’llar bilan qo‘llanganda Präterit voqeani segmentlangan jarayon sifatida tasvirlash imkonini beradi.

Bunday vaziyatlarda harakat yagona akt sifatida emas, balki vaqt davomida takrorlanib turuvchi mikroharakatlar tizimi sifatida talqin qilinadi. Natijada Präterit narrativ diskursda voqealarning tasviriy fonini yaratish hamda segmentlangan o‘tmish modelini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Qiyosiy tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek tilida iterativlik, ko‘pincha, analitik fe’l konstruksiyalari orqali grammatiklashgan holda ifodalanadi. Nemis tilida esa iterativlik, asosan, fe’lning leksik-aksional semantikasi hamda kontekstual vositalar orqali yuzaga keladi.

Shu tariqa, Präterit nemis tilida nafaqat temporal kategoriya, balki iterativ semantikaga ega fe'llar bilan qo'llanganda, narrativ diskursda segmentlangan o'tmish modelini shakllantiruvchi muhim aspektual vosita sifatida namoyon bo'ladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


(1). Biskup P. On Imperfective Suffixes in Russian. Russian Linguistics, 2024.
(2). Duden. Die Grammatik. Mannheim, 2009.
(3). Engel U. Deutsche Grammatik. Neubearbeitung. München, Iudicium Verlag, 2009.
(4). Goethe J.W. Die Leiden des jungen Werthers. Leipzig, Verlag Philipp Reclam jun., 1976.
(5). Helbig G., Buscha J. Deutsche Grammatik. Leipzig, 1986.
(6). Jászay L. On the Problem of Iterative Action of the Russian Verb. Slověne, 2022.
(7). Kafka F. Die Verwandlung. Leipzig, Kurt Wolff Verlag, 1915.
(8). Mann T. Buddenbrooks. Berlin und Weimar: Aufbau-Verlag, 1975.
(9). Remarque E.M. Zeit zu leben und Zeit zu sterben. Köln: Kiepenheuer & Witsch, 1954.
(10). Wągiel M. Iterative. Semelfactive = Collective. Singulative? Parallels in Slavic. Languages, 2025.



**Sultonova Dildora Halim qizi (O'zbekiston jahon tillari universiteti, mustaqil tadqiqotchi;**
**E-mail: dildora750@gmail.com)**


## STILISTIK VOSITALARNING TURLARI VA ULARNING TARJIMA MODIFIKATSIYASI


***Annotatsiya.*** *Ushbu maqolada badiiy matnlarning estetik va ekspressiv mazmunini ta'minlovchi stilistik vositalar, ularning tasnifi hamda tarjima jarayonidagi modifikatsiyasi (o'zgarishi) masalalari tadqiq etiladi. Maqolaning asosiy maqsadi – muallif uslubini saqlab qolgan holda, lisoniy vositalarni bir tildan ikkinchi tilga o'girishda yuzaga keladigan transformatsiyalarni tahlil qilishdan iborat. Maqolada tarjima jarayonida stilistik bo'yoqning kuchayishi, pasayishi yoki muqobil variantlar bilan almashinishi sabablari hamda milliy koloritga ega bo'lgan tasviriy vositalarni tarjimada qayta yaratishning qiyinchiliklari va yechimlari haqida ma'lumot berilgan. Stilistik vositalarni shunchaki so'zma-so'z tarjima qilish matnning badiiy qiymatini tushiradi. Shu sababli tarjimon matnning kontekstual ma'nosidan kelib chiqib, funksional-stilistik modifikatsiyalarni qo'llashi zarurligi ushbu maqolada ko'rsatilgan.*



***Kalit so'zlar:*** *stilistik vosita, tarjima modifikatsiyasi, metafora, transformatsiya, badiiy matn, ekvivalentlik, lingvistik tahlil.*


## ВИДЫ СТИЛИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ И ИХ ПЕРЕВОДЧЕСКАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ


***Аннотация.*** *В данной работе исследуются виды стилистических средств и их модификации в процессе перевода. Основное внимание уделяется анализу трансформаций, происходящих при передаче экспрессивности оригинала на язык перевода. Автор рассматривает лексико-семантические приемы (метафора, эпитет, сравнение) и определяет условия, при которых необходима модификация стилистических единиц для сохранения адекватности перевода.*



***Ключевые слова:*** *стилистические средства, переводческая модификация, метафора, трансформация, художественный текст.*


## TYPES OF STYLISTIC MEANS AND THEIR TRANSLATION TRANSFORMATION


***Annotation.*** *This article explores stylistic devices that ensure the aesthetic and expressive content of literary texts, their classification, and the issues surrounding their translational modification. The primary objective of the study is to analyze the transformations that occur when rendering linguistic devices from one language to another while preserving the author's unique style. The paper examines the reasons behind the intensification, weakening, or replacement of stylistic coloring during the translation process, as well as the challenges and solutions in recreating figurative means embedded with national color. It is argued that a literal translation of stylistic devices diminishes the artistic value of the text. Consequently, the article demonstrates the necessity for translators to apply functional-stylistic modifications based on the contextual meaning of the original work.*



***Keywords:*** *stylistic devices, translational modification, metaphor, transformation, literary text, equivalence, functional-stylistic analysis.*


**Kirish.** Stilistik vositalarning paydo bo'lish va rivojlanish bosqichlarining ildizi Qadimgi Yunoniston va Rimga borib taqaladi. O'sha davrda stilistika mustaqil fan hisoblanmagan, u notiqlik san'ati, ya'ni Ritorika tarkibida bo'lgan. Dastlab, Aristotel, Sitseron, Kvintilian kabi olimlar birinchi bo'lib nutqni bezash usullarini, ya'ni trop va figuralarni tizimlashtirganlar. Bundan asosiy maqsad, kitobxonga ta'sir o'tkazish va uni ishontirish hisoblangan. Metafora, epitet va ritorik so'roqlar aynan notiqlik san'ati sababli shakllangan. Keyinchalik, o'rta asrlarda stilistik vositalar diniy matnlarni sharhlash va saroy adabiyotida keng